

ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING TASNIFI VA G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Abduraximova Marjona

Farg'ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi
2-boshqich 24.90-guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20052190>

Kalit so'zlar: G'azal, badiiy san'atlar, g'oya, Navoiy uslubi, so'z qo'llash mahorati, badiiyat, mohiyat, oshiq, yor.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. G'azallardagi ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar, insoniy tuyg'ularning ifodalanishi, muhabbat va ishq mavzularining badiiy tafakkurdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Navoiy ijodidagi falsafiy g'oyalar, ma'naviy intilishlar va estetik go'zallikning o'ziga xosligi yoritiladi.

Maqolada Navoiy g'azallaridagi uslubiy vositalar, obrazlar va poetik figurativlik tahlil qilinib, ularning o'quvchi ongiga ta'siri va badiiy qiymati ko'rsatib beriladi.

Keywords: Ghazal, literary devuce,idea, Navoiy's style, mastery of wurd usage, poetics, essence, lover, beloved.

ANNOTATION

This article analyzes the ideological and artistic features of Alisher Navoi's ghazals. The spiritual and educational values, expression of human feelings, and the role of love and romance themes in artistic thought are examined. Also, the philosophical ideas, spiritual aspirations, and the uniqueness of aesthetic beauty in Navoi's work are highlighted.

The article analyzes the stylistic means, images, and poetic figurativeness in Navoi's ghazals, and shows their influence on the reader's consciousness and artistic value.

Ключевые слова: Газель, художественные приёмы, идеястиль Навои Alisher Navoi, поэтика, сущность, влюблённый, возлюбленная.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются идеологические и художественные особенности газелей Алишера Навои. Рассматриваются духовные и воспитательные ценности, выражение человеческих чувств, а также роль тем любви и романтики в художественной мысли. Также освещаются философские идеи, духовные устремления и уникальность эстетической красоты в творчестве Навои.

В статье анализируются стилистические средства, образы и поэтическая образность в газелях Навои и показано их влияние на сознание читателя и художественную ценность.

KIRISH

Alisher Navoiy (1441–1501) o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi bo'lib, xususan, g'azal janrida betakror ijod qilgan. Uning g'azallari nafaqat o'sha davrning adabiy-estetik didini aks ettiradi, balki insonning ma'naviy dunyosini, falsafiy tafakkurini, ishq va muhabbat haqidagi qarashlarini chuqur ifodalaydi. G'azal janrida Navoiy o'zining falsafiy g'oyalarini, axloqiy qadriyatlarini va go'zal ifoda vositalarini mukammal uyg'unlashtirgan. Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti tarixida g'azal janrini eng yuksak darajaga ko'targan buyuk ijodkorlardan biridir. Alisher Navoiy g'azallari o'zining chuqur g'oyaviy mazmuni, nafis badiiy ifodasi va falsafiy mushohadalari bilan Sharq adabiyotining nodir durdonalaridan sanaladi. Uning g'azallarida

inson hayoti, ishq, ma’naviyat, tasavvuf va axloqiy qarashlar uyg’un holda aks etadi. Shu sababli Navoiy g’azallarini tasnif qilish va ularning g’oyaviy-badiiy xususiyatlarini o’rganish adabiyotshunoslikda muhim ahamiyatga ega.

“Xazoyin-ul maoniy” kulliyotining eng ko’p qo’llanilgan janr bu, shubhasiz, - g’azaldir. Shoirning turkiy tilda bitilgan 2600 g’azali ushbu kulliyotdan o’rin olgan. Navoiy g’azallarida faqat miqdor jihatdan emas, balki, g’oyaviy-badiiy ko’lami jihatidan ham Sharq mumtoz g’azalchiligining yuksak namunalari sarasiga kiradi.

Alisher Navoiy g’azallari o’zining chuqur mazmuni, badiiy mukammalligi va rang-barang mavzulari bilan turkiy adabiyotda alohida o’rin egallaydi. G’azal janrida Navoiy mavjud an’analarga tayangan holda uni yangi bosqichga olib chiqdi. U fors-tojik adabiyotidagi tajribalarni o’rganib, eng yaxshi jihatlarini o’z ijodida qo’lladi va turkiy g’azalchilikni yuksak darajaga ko’tardi.

Navoiy g’azallarining badiiy xususiyatlaridan biri — obraz va timsollarning ko’p qatlamli ma’no kasb etishidir. Shoir g’azallarida ishlatilgan yor, may, soqiy, gul, bulbul kabi obrazlar nafaqat bevosita ma’noda, balki tasavvufiy va ramziy ma’nolarda ham talqin qilinadi. Shu sababli uning g’azallari tashqi jihatdan ishqiy ko’rinsa-da, ichki mohiyatida falsafiy va orifona mazmun yashirin bo’ladi. Navoiy tabiat tasvirlari orqali ham inson ruhiyati va jamiyat muammolarini aks ettiradi.

G’azallarining yana bir muhim xususiyati — irfoniylilik, ya’ni ma’rifiy va tasavvufiy ruhning kuchliligidir. Shoir insonni komillikka chorlaydi, nafsni tiyish, poklanish, haqiqatga erishish g’oyalarini ilgari suradi. Shu bilan birga, u axloqiy-ta’limiy fikrlarni ham ilgari surib, odamlarni yaxshi xulqqa, to’g’ri hayot yo’liga undaydi.

Navoiy g’azallari mavzusiga ko’ra bir necha turlarga bo’linadi. Birinchisi — hamd g’azallar bo’lib, ularda Alloh madh etiladi. Ikkinchisi — na’t g’azallar, bunda Payg’ambar Muhammad (s.a.v.) ulug’lanadi. Uchinchi tur — oshiqona g’azallar bo’lib, unda ishq, yor visoli, hijron iztiroblari tasvirlanadi. To’rtinchi tur — orifona yoki tasavvufiy-falsafiy g’azallar bo’lib, unda hayot, haqiqat va ma’naviyat masalalari yoritiladi. Beshinchi — axloqiy-ta’limiy g’azallar, inson tarbiyasi va odoq-axloq masalalariga bag’ishlanadi. Oltinchi — ijtimoiy mavzudagi g’azallar bo’lib, jamiyatdagi muammolar aks ettiriladi. Shuningdek, rindona (erkin ruhdagi), tabiat tasviri aks etgan va hajviy g’azallar ham mavjud.

Navoiy ijodida ishq mavzusi alohida o’rin tutadi. U ishqni uch darajaga ajratadi: avom ishiqi (oddiy), majoziy ishq va haqiqiy ishq. Shoir ko’proq majoziy ishq orqali haqiqiy ishqqa erishish g’oyasini ilgari suradi. Uning fikricha, inson avval dunyoviy muhabbat orqali poklanib, so’ng ilohiy muhabbat darajasiga ko’tariladi.

Navoiy g’azallarining semantik strukturasi uchun xos bo’lgan yana bir xususiyat shundaki, shoirning aksariyat g’azallarida maqta’dan oldingi bayt mazmun va uslub jihatidan butun g’azal tarkibidagi boshqa baytlardan ajralib turadi. Bundan tashqari bayt, oldingi baytlardagi tasvir usulidan qat’iy nazar, ikkinchi shaxsga qaratilgan murojaat, xitob tarzidagi o’git yoki umumlashgan ibratomuz xulosadan iborat bo’ladi. Shoir, ko’pincha, o’z fikrini soqiyga yoki boshqa biror obyektga: gulga, shohga yoki ma’shuqaga murojaat shaklida izhor qiladi. Alisher Navoiy mav’izatimiz baytlarda soqiy, bog’bon, ko’ngul, rafiq, do’st, yor kabi obrazlarga murojaat qilsa-da, baytdagi xulosa va umumlashmalar, avvalo, shoirning o’ziga qaratilgan bo’ladi.

Alisher Navoiy g‘azallari nafaqat badiiy, balki g‘oyaviy jihatdan ham boy ijod namunasi hisoblanadi. Ular inson ruhiyatini, axloqiy fazilatlarni, ishq va sevgi, hayot va o‘lim haqidagi falsafiy qarashlarni chuqur ifodalaydi. Navoiy g‘azallaridagi poetik vositalar, tasviriy obrazlar va ritm estetik zavq bilan birga ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya beradi. Shu bilan birga, u o‘zbek adabiyotida g‘azal janrining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan buyuk ijodkor sifatida qadrlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Navoiy g‘azallari o‘zining g‘oyaviy-badiiy boyligi, falsafiy chuqurligi va estetik go‘zalligi bilan nafaqat adabiy meros sifatida, balki inson ruhiyatini yuksaltiruvchi, ma‘naviy tarbiya beruvchi noyob ijod namunasi sifatida qadrlanadi.

Alisher Navoiy g‘azallari nafaqat o‘zbek adabiyotining, balki butun turkiy adabiyotning eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Ularning g‘oyaviy xususiyati inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar, ishq va ma‘naviyat kabi mavzularni chuqur falsafiy va ma‘naviy tafakkur bilan yoritishdan iborat. Navoiy g‘azallarida ilohiy ishq va insoniy muhabbat uyg‘unlashib, insonni ruhiy kamolga yetkazishga xizmat qiladi. Shuningdek, u axloqiy fazilatlarni qadrlash, salbiy odatlarni tanqid qilish orqali ma‘naviy tarbiya vazifasini bajaradi.

Badiiy xususiyatlari jihatidan Navoiy g‘azallari til va uslub boyligi, ritm va ohang uyg‘unligi, tasviriy obrazlar, ramz va timsollarning mahoratli ishlatilishi bilan ajralib turadi. G‘azallarda tabiiy, insoniy va ilohiy obrazlar bir-birini to‘ldirib, o‘quvchida chuqur hissiy ta‘sir uyg‘otadi. Shu bilan birga, Navoiy g‘azallarida badiiy go‘zallik va ma‘naviy mazmun mukammal uyg‘unlashgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Navoiy, A. – Xamsa. Toshkent: O‘zbekiston, 1991.
2. Navoiy, A. – Devoni lug‘at-it-turk. Toshkent: Sharq, 2005.
3. Sobirov, A. – Alisher Navoiy ijodida g‘azal san‘ati. Toshkent: Fan, 2010.
4. Ergashov, M. – O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan, 2008.
5. Qodirov, T. – Navoiy g‘azallarida ishq va ma‘naviyat. Samarqand: Sharq, 2015.
6. Islomov, R. – Turkiy she‘riyatda g‘azal janri. Toshkent: Adabiyot, 2007.
7. Hamidov, N. – Alisher Navoiy va falsafiy tafakkur. Toshkent: Fan, 2012.
8. Abdullayev, B. – Navoiy g‘azallarining badiiy xususiyatlari. Buxoro: Sharq, 2011.
9. Karimov, S. – O‘zbek klassik adabiyotida ishq va sevgi mavzusi. Toshkent: Ilm, 2014.
10. Yusupov, F. – G‘azal janri va Navoiy. Toshkent: Fan, 2009.
11. Tursunov, A. – Alisher Navoiy: estetik va ma‘naviy qarashlar. Samarqand: Sharq, 2013.
12. Raxmonov, D. – O‘zbek adabiyotida ma‘naviy qadriyatlar. Toshkent: Adabiyot, 2010.
13. Saidov, I. – Navoiy she‘riyatida obraz va ramzlar. Toshkent: Fan, 2016.
14. Hamroyev, K. – Alisher Navoiy va turkiy adabiy meros. Toshkent: Sharq, 2018.
15. Tillaev, Z. – G‘azal janri va Navoiy ijodidagi innovatsiyalar. Buxoro: Fan, 2017.